

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA FAKULTETI

«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHINING LOYIHASI BO'YICHA

TUSHINTIRISH XATI

Bitiruv malakaviy ishi loyihasining mavzusi:
Gurlan tumani Sahtiyon qishlog'ining hududiy arxitekturaviy
rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish


Bitiruvchi 213 QHALTE yo'nalishi guruh talabasi:  Rajabov R.

Kafedra mudiri:  dots.Raxmanov B.S.

Diplom loyihasi raxbari:  Umirov R.

Maslaxatchilar:

1.Arxitektura qismi  Umirov R.

2.Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi  Saidov Q.

3.Qurilish texnologiyasini
tashkil qilish qismi  Axmedov Q.

4. Iqtisodiyot qismi  Sobirov B.

Urganch - 2018 yil

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

TEXNIKA FAKULTETI

«QURILISH VA ARXITEKTURA» KAFEDRASI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIHASINI BAJARISH BO'YICHA T O P S H I R I Q

(talabaning familiyasi, ismi-sharifi)

1. Bitiruv malakaviy ishi loyihasining mavzusi _____

UrDU bo'yicha 2018 yil «_____» _____dagi _____ - son buyruq bilan tasdiqlangan.

2. Bitiruv malakaviy ishi loyihasini bajarish uchun ma'lumotlar: Binoni joylashtirish bo'yicha xolat tarxi M- 1:1000, I :2000, _____

3. Tushintirish xatida keltiriladigan ma'lumotlar (70-80 varaq A 4 formatda qo'lyozma tarzida yozilgan matnlar):

a) Arxitektura qismi bo'yicha: Xolat tarxi, bosh reja, binoning arxitekturaviy-rejalashtirish echimi, arxitekturaviy kompozitsiya, xulosa.

b) Konstruktiv qism bo'yicha: Binoning konstruktiv uzeli (ayrim olingan bir qismi), devorlar, tom yopma qismi, poydevor qismi, zinapoya, balka, ustun, rigel va hakoza(hajmi maslaxatchi tomonidan belgilanadi) hisoblanadi va loyihalanadi.

v) Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi bo'yicha: Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha topshiriq bitiruv malakaviy ishida loyihalanayotgan ob'ektning joylashgan o'rniga, ishlab – chiqarish yoki xizmat ko'rsatishning turiga, ishlab chiqarishning aniq spetsifik holatiga yondoshgan holda beriladi. Bu bo'limni bajarishda quyidagilarga e'tibor qaratish muhimdir:

Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha texnik echimlar loyiha hujjatlarida to'g'ri xal qilinishiga va loyixada sanitar – maishiy xonalar, yong'in xavfsizligi qurilmalari to'g'ri kabul qilingan va ishlab chiqarish jarayonida mehnatni muhofaza qilishning:

a) mehnatni muhofaza qilishning qonuniy asoslari, xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini tashkil qilish, mehnat sharoitini yaratishga;

v) ishlab – chiqarish sanitariyasi va gigienasi qoidalariga;

s) xavfsizlik texnikasining barcha masalalariga;

d) ishlab – chiqarishda yong'inga qarshi kurash chora tadbirlariga keng e'tibor qaratish va yong'in paytida odamlarni evakuatsiya qilish masalalarini xal qilish lozimdir.

g) Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi bo'yicha: Loyihalanayotgan ob'ektning qurilish-montaj ishlarini tashkil qilish va qurilish ishlarini bajarish texnologiyasini o'z ichiga oladi. Qurilish-montaj ishlarining nomenklaturasi, ish hajmi, mehnat xarajatlari, mashina vaqti sarfi, qurilish-montaj ishlarini bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, ishlarni bajarish ketma-ketligi asosida kalendar reja ishlab chiqishdan iborat.

d) Iqtisodiyot qismi: *Ob'ektni qurish uchun zarur bo'lgan:*

a) ish haqi xarajatlari;

v) mashina - mexanizmlar xarajatlari;

s) asosiy qurilish materiallari va konstruksiyalariga qilingan xarajatlarni;

d) uskuna va jixozlarga qilingan xarajatlarni xisoblab, ob'ektning umumiy smeta baxosini va qurilish – montaj ishlari baxosini aniqlashdan iboratdir. Buning natijasida qurilish uchun sarflangan mablag'ning iqtisodiy samaradorligini xisoblash maqsadga muvofiqdir. Yuqoridagi ishlarni «Uzdavarkonstruktsiya» tomonidan ishlab chiqilgan va 2005 yildan ishlab chiqarishga joriy qilingan «Qurqiymatasos» - 2005 kompyuter dasturi yordamida bajarish ham mumkin.

e) Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati: Adabiyotlar ro'yxati – o'rganilgan chizmalar, tasvirlar, adabiyotlar, me'yoriy hujjatlar, ilmiy maqolalar, boshqa manbalardan to'plangan ma'lumotlar to'la tahlil qilinadi. Ulardan olingan ma'lumotlarni lo'nda qilib ifodalash zarur. Talaba yozayotganda Internet saydlaridan, o'zi tuzgan manbalar kartotekasidan foydalanadi

j) Mundarija: Bitiruv malakaviy ishi loyihasining ketma-ketligi ko'rsatiladi unda mumkin qadar ishning bajarilish tartibi aks etishi lozim.

4. Bitiruv malakaviy ishi loyihasining chizmalari (80 x 90sm formatda 4 list doskada yoki maketi bo'lishi kerak):





a) Arxitektura chizmalari: Holat tarxi, shamol guli, bosh reja, binoning qavatlar tarxi, binoning asosiy tarzi, yon tarz, umumiy ko'rinishi (perespektiva), xona inter'eri, qirgimi va qaydnomada xonaning hajmi kv.m. aks etgan bo'lishi kerak.

b) Konstruksiya chizmasi: Vatman qog'ozda konstruksiya qismi (maslahatchi tomonidan berilgan topshiriq asosida) loyihalanadi

b) Konstruktsiya chizmasi: Vatman qog'ozda konstruktsiya qismi (maslahatchi tomonidan berilgan topshiriq asosida) loyihalanadi

v) Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi bo'yicha: binoning qurilib bitkazilish muddatini belgilovchi kalendar grafik chizmasi millimetr katak shaklidagi qog'ozda chiziladi.


5. Bitiruv malakaviy ishi loyihasi qismlari bo'yicha maslahatchilar*:

No	Bitiruv malakaviy ishi loyihasining qismlari	Boshlanish muddati	Tugallanish muddati	Imzo	Maslahatchining familiyasi
1	Arxitektura qismi				Umirov R
2	Konstruktiv qismi				
3	Mehnat va atrof muxit muhofazasi qismi				Saidov Q
4	Qurilish texnologiyasini tashkil qilish qismi				Ahmedov Q
5	Iqtisodiyot qismi				Sobirov B

Izo: * - Bitiruv malakaviy ishi loyihasi rahbarining taklifiga binoan, mutaxassis chiqaruvchi kafedra loyihaga rahbarlik qilishga ajratilgan vaqt limiti hisobidan loyihaning ayrim bo'limlari bo'yicha maslahatchilarni taklif etishi mumkin.

6. Topshiriq berilgan sana _____

7. Tugallangan diplom loyihasini topshirish sanasi _____

Bitiruv malakaviy ishi loyihasi rahbari  (imzo)

Topshiriq bajarish uchun qabul qilindi  (imzo)

Kafedra mudiri  (imzo)

MUNDARIJA

1. KIRISH.....
2. ARXITEKTURA QISMI.....
3. QURILISH TEXNOLOGIYASINI TASHKIL ETISH QISMI.....
4. IQTSODIYOTI QISMI.....
5. MEHNAT VA ATROF MUHITNI MUHOFAZASI QISMI.....
6. XULOSA.....
7. FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....

Kirish

Keyingi yillarda qishloq joylarda aholi uchun namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylar qurish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirilganligi qayd etilsin. Faqat 2009-2016 yillar davrida qishloq joylarda 1308 turar joy massivida umumiy maydoni 9 573 ming kvadrat metr bo'lgan 69 557 ta shinam uy-joy qurildi. Qishloqlardagi 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi.

Ko'rilgan chora-tadbirlar oilalarni zamonaviy, sifatli, shinam uy-joy bilan ta'minlashga, qishloqda yangi muhandislik-kommunikatsiya, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini shakllantirishga ko'maklashdi, qishloqning qiyofasini yangi darajaga ko'tarish va shu asosda qishloq aholisining hayot darajasini yaxshilash va dunyoqarashini o'zgartirish imkonini berdi.

SHu bilan birga, ushbu sohani o'rganish aholining real ehtiyojlari va xarid qobiliyatini, shuningdek milliy mentalitetni va qishloq joylarda yashash sharoitlarining xususiyatlarini to'liq hisobga olib qurilish samaradorligini oshirishga yo'naltirilgan prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Keyingi yillarda respublikada qishloq aholi punktlarining me'moriy qiyofasini yaxshilash, namunaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibda uy-joylar qurish hisobiga qishloq aholisining hayoti darajasi va sifatini oshirish, qishloqda muhandislik va transport kommunikatsiyalarini, ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini jadal rivojlantirish bo'yicha ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Faqat 2009-2016 yillarda qishloq joylarda 1308 turar joy massivida umumiy maydoni 9 million 573 ming kvadrat metr bo'lgan 69 557 ta shinam uy-joy qurildi. Qishloqlardagi 83,5 mingdan ortiq oilaning yashash sharoiti yaxshilandi. SHu bilan birga, o'rganish yakunlari aholining real ehtiyojlarini va xarid qobiliyatini, shuningdek milliy mentalitetni va qishloq joylarda yashash sharoitlarini to'liq hisobga oluvchi qurilishning yuqori samaradorligini ta'minlaydigan prinsipial jihatdan yangi yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatdi. Qishloq aholisining zamonaviy va arzon uylarga bo'lgan o'sib borayotgan ehtiyoji imtiyozli kredit berishning yuqori darajadagi shartlarini joriy etishni, energiyani tejaydigan materiallar va asbob-uskunalarining yangi turlaridan foydalanishni

yanada kengaytirishni, shuningdek barpo etilayotgan uylarning tannarxini pasaytirishni talab qilmoqda. Ushbu muhim vazifalar hisobga olingan holda qabul qilingan qaror qishloq aholisining keng qatlamlari uchun zamonaviy va shinam uylardan foydalanish darajasini tubdan oshirishga, er resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlashga va qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishini yanada rivojlantirishga yo'naltirilgan. Qaror to'plangan tajribani o'rganishni hisobga olib qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurilishiga yangicha yondashuvni mustahkamlaydi. Qarorda besh yillik davrga mo'ljallangan qishloq joylarda arzon uylar qurishning ko'lamli Dasturini amalga oshirish nazarda tutilgan. Dasturga asos qilib olingan yangilangan namunaviy loyihalar qishloq aholisining yuqorida ko'rsatib o'tilgan talablari va ehtiyojlarini to'liq hisobga oladi, chunki ularning fikrlari va istak-xohishlari hisobga olinib ishlab chiqilgan. Dasturda qishloq joylarda narx parametrlari va shinamliligiga ko'ra yakka tartibdagi uy-joylar namunalarining uchta eng arzon turlarini qo'shimcha ravishda barpo etish nazarda tutiladi. Jumladan, **birinchi turi** bo'yicha uch yoki to'rt yo'lakli, xo'jalik imoratlari va obod hovlilari bo'lgan ikki va uch qavatli ko'p kvartirali uylar barpo etishni nazarda tutadi. Misol uchun bunday uylarda umumiy maydoni 42,4 kvadrat metr va taxminiy qiymati 72,5 million so'm, xo'jalik imoratlari hisobga olingan holda 85,0 million so'm bo'lgan ikki xonali kvartiralar qurish rejalashtirilmoqda. O'z navbatida, uch xonali kvartiralarning maydoni 52,4 kvadrat metr va taxminiy qiymati 88,5 million so'm, xo'jalik imoratlari hisobga olingan holda 100,7 million so'm bo'ladi. Bundan tashqari, ko'rsatib o'tilgan ko'p kvartirali uylarni qurishda kvartiralar egalarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida hovlida joylashtiriladigan imoratlar – bolalar maydonchalari, dam olish uchun ayvonlar, dush va boshqalar barpo etish nazarda tutiladi. **Ikkinchi turiga** muvofiq aholi zich joylashgan tumanlarda 2 sotix maydondagi er uchastkasida barpo etiladigan bir qavatli ikki va uch xonali arzon uylar qurish mo'ljallanmoqda. Bunday ikki xonali uylarning umumiy maydoni 53,0 kvadrat metr va taxminiy qiymati 93,8 million so'm, xo'jalik imoratlari hisobga olingan holda 101,5 million so'm bo'ladi. Uch xonali uylarning umumiy maydoni 63,5 kvadrat metr va

taxminiy qiymati 111,0 million so‘m, xo‘jalik imoratlari hisobga olingan holda 118,7 million so‘m bo‘ladi. Uylarning hovlisida xo‘jalik imoratlari qurish nazarda tutiladi. **Uchinchi turi** 4 sotix maydondagi er uchastkasida barpo etiladigan umumiy maydoni 115,0 kvadrat metr bo‘lgan yagona blokka birlashtirilgan ikki qavatli to‘rt xonali uylar qurishni nazarda tutadi. Bunda ko‘rsatib o‘tilgan uylarning taxminiy qiymati 162,0 million so‘mni, xo‘jalik imoratlari hisobga olingan holda 181,8 million so‘mni tashkil etadi. Uylarning hovlisida xo‘jalik imoratlari qurish nazarda tutiladi. Agar 2009 yilda qabul qilingan Qishloq joylarda namunaviy loyihalar bo‘yicha yakka tartibda uy-joylar qurish dasturi doirasida uy quruvchining dastlabki badali 25 foizni tashkil etgan bo‘lsa, yangi Dastur bo‘yicha ushbu badal birinchi va ikkinchi turdagi uylarni quruvchilar uchun atigi 15 foizni tashkil etadi. Bu arzon uylar Dasturiga qishloq aholisining keng qatlamlarini jalb etishga ko‘maklashadi. Bundan tashqari, ipoteka krediti uch yillik imtiyozli davr va birinchi 5 yil mobaynida yillik 7 foiz miqdoridagi foiz stavkasi bilan 15 yil muddatga beriladi. Keyingi yillarda kreditning foiz stavkasi Markaziy bankning hozirgi vaqtda yillik 9 foizni tashkil etadigan qayta moliyalashtirish stavkasidan ortiq bo‘lmaydi. Dasturni moliyalashtirishga faqat 2017 yilda 2 trillion 121,5 milliard so‘m yo‘naltiriladi, shu jumladan uy quruvchilarning mablag‘lari bilan birgalikda davlat byudjetidan 350,0 milliard so‘m ajratiladi, shuningdek tijorat banklarining 2 trillion so‘mdan ortiq miqdoridagi kredit resurslarini jalb etish nazarda tutiladi. Umuman olganda, Dasturda 2017 yilda 15 ming ta yangi uy va kvartira, shu jumladan 4608 ta birinchi turdagi, 3739 ta ikkinchi turdagi, 3672 ta uchinchi turdagi uylarni hamda 0,06 gektar maydonga 3, 4 va 5 xonali 2981 ta bir qavatli uy qurish nazarda tutiladi. SHu bilan birga yangi qurilayotgan uy-joy massivlarida faqat davlat resurslari hisobiga 415,3 kilometr suv ta‘minoti tarmoqlari, 291,5 kilometr elektr ta‘minoti tarmoqlari, 316,9 kilometr gaz ta‘minoti tarmoqlari va 260,3 kilometr avtomobil yo‘llari, shu jumladan massivlar ichida kirish yo‘llari va yo‘llar, shuningdek 134 ta ijtimoiy infratuzilma ob‘ektini barpo etish mo‘ljallanmoqda. Qurilish-montaj ishlari sifatiga qo‘yiladigan talablarning oshirilishi Dasturning yana bir muhim xususiyati hisoblanadi. Bunda asosiy

qurilish materiallari va buyumlarga qurilish-pudrat tashkilotlarining xarajatlarini optimallashtirish hisobiga barpo etiladigan namunaviy uy-joylar qiymati pasayishi ta'minlanadi. Bundan tashqari, uylarning arzonligiga Dastur ishtirokchilari uchun soliq, bojxona imtiyozlari va boshqa imtiyozlar berilishi tufayli ham erishiladi. Masalan, pudrat tashkilotlari arzon uylar qurish doirasida bajariladigan ishlar hajmi uchun soliqlarning barcha turlarini va davlat maqsadli jamg'armalariga majburiy ajratmalarni to'lashdan ozod etiladi. Ushbu Dasturning samarali amalga oshirilishi davlat tuzilmalarining alohida nazorati ostida bo'ladi, unda nazarda tutilgan ko'rsatkichlar bajarilishining tizimli monitoringi olib boriladi. Yangilangan loyihalar bo'yicha barpo etiladigan uylar o'zining narx parametrlari, sifat tavsiflari va shinamliligi bo'yicha Markaziy Osiyoda o'xshashi yo'qligini e'tirof etish zarur. Qarorning amalga oshirilishi qishloqni obodonlashtirishning va qishloq aholisi hayot darajasini tubdan oshirishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq joylarda yakka tartibda uy-joy qurish ko'lamlarini yanada kengaytirish bo'yicha uzviylik va izchillik yo'lini ta'minlashga ko'maklashadi. [1]

Loyihalanayotgan bitiruv malakaviy ish mavzusi **Gurlan tumanida Sahtiyon qishlog'ini hududiy axritekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish**


Arxitektura qismi

Bitiruvchi:



Rajabov R

Mastlahatchi:



Umirov R

Mas'ul rahbar:



Umirov R

Tanlangan mavzuning dolzarbliligni ilmiy asoslash: Gurlan tumani Sahtiyon qishlog‘ining xududiy arxitekturaliy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish bugungi kunda axolining ijtimoiy rivojlanish bosqichlarini inobatga olib axolini kelgusida qaysi hududda joylashtirish bo‘yicha taxlillar asosida loyiha tayyorlash mavzuning dolzarbligidir .

Ushbu ajratilgan hududda yashovchi aholi sonining oshishi va yosh oilalarni turar joy binolari bilan ta‘minlashda, yangi oilalar uchun yetarli darajada sharoit yaratib berish va dam olishlari uchun qulay imkoniyatlar yaratish maqsadida maydonlar tashkil etish va xududiy loyihasini ishlash mavzuning dolzarbligini ko‘rsatadi.

Loyiha maqsadi vazifasi: Gurlan tumani Saxtiyon qishlog‘ida xududiy arxitekturaliy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqishda ushbu hududdagi mavjud binolar aniqlanib yangi axoli yashash markazini tashkil qilib uning negizida axoliga xizmat ko‘rsatish infratuzilmasini shakllantirishdan iborat. Qishloqlararo xizmat ko‘rsatish tizimi qishloq xo‘jaligini sanoat asosida yuritishga o‘tish, transport va aloqa vositalarini, kommunikatsiya infratuzilmasini rivojlanishi, joylashuv tizimlarining shakllanishi, madaniy-maishiy xizmat ko‘rsatish sohasidagi ilmiy-texnik taraqqiyot qishloqlararo xizmat ko‘rsatish tizimi yaratilishi uchun asosiy dastlabki shartlar bo‘lib xizmat qiladi. Bu yangi hududda shakllanayotgan joylashuvning yangi tizimida bunday o‘zgarishlarni amalga oshirish real voqelik sifatida qabul qilinmoqda. Joylashuvning bunday tizimi shahar va qishloq uchun yagona joylashuv tizimining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Demak, qishloq joylardagi xizmat ko‘rsatish tizimi ham shahar va qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha yagona tizimning bir qismi bo‘lishi kerak. Bu tizim shu sohaning barcha korxonalarini va muassasalarining birlashishi asosida qurilib, aholi punktlariga (ular qayerda joylashishidan qat‘iy nazar) bir maromda xizmat ko‘rsatilishini ta‘minlashi lozim.

Loyihalayotgan bitiruv malakaviy ishida Gurlan tumani Sahtiyon qishlog'ining xududiy arxitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish bo'lib bugungi kunda aholini shahsiy turar joylar bilan ta'minlash borasida yangi markazlarning ochilishi va ularga shaharsozlik me'yoriy qoidalari asosida barcha qulayliklarni yaratib berishdan iborat.

Loyiha ob'yekti va predmetini aniqlash: Gurlan tumani Sahtiyon qishlog'ining xududiy arxitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish uchun ushbu qishloq markazidan shimoliy g'arb tomondan janubiy sharq tomonga qarab Mangit Yangibozor magistral yo'li kesib o'tgan. Ushbu magistral yo'lining shimoliy sharq tomoniga 30 ga er maydon tanlab olindi va ushbu maydonga xududiy rejalashtirish loyihasi tayyorlandi.

Ushbu xududda markaz loyixalash ijtimoiy va ishbilarmonlik faoliyati uchun binolar, posyolkaning me'moriy-hajmiy kompozitsiyasi va konturini belgilab berishda katta rol o'ynaydi.

Xozirgi paytda O'zbekistonda 26 mln. 485 ming kishi yashaydi (2006), shu jumladan, Shaxar axolisi 9799,45 ming kishi (37 %), qishloq axolisi 16685,55 ming kishi (63 %).

Respublika tarkibiga Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shaxri - Respublika miqyosidagi Shaxar kiradi. Respublikada 121 ta Shaxar, shu jumladan 55 ta respublika va viloyat miqyosidagi, 113 ta Shaxar posyolkalari, 35 ta qishloq, tuman markazlari mavjud.

Respublika xududi 447,4 ming km² ni, axolining o'rtacha zichligi 53,1 odam km² ni tashkil etadi, ammo respublika aloxida viloyatlari bo'yicha zichlik 6,9 odam km² dan (Navoiy viloyati), 503,5 odam km² (Andijon viloyati) gacha tebranadi. Axoli eng zich joylashgan viloyatlar: Farg'ona vodiysida - Andijon, Namangan va Farg'ona viloyatlari xamda Toshkent va Samarqand viloyatlaridir.

Xududlar o'lchamlaridagi farq tabiiy-iqlimiy sharoitlar bilan belgilanadi.

Yangi Shaxarlar foydali qazilmalarni qazib olish va qayta ishlash asosida (Angren, Olmaliq, Nurobod, Quvasoy, Zarafshon, Yangiobod va boshqa Shaxarlar), qishloq xo'jaligi xom ashyosini qayta ishlash markazlari sifatida

(Yangiyo'l, Xo'jayli, CHimboy Shaxarlari), energetika va kimyoni rivojlantirish asosida (CHirchiq, Navoiy, Bekobod, Guliston Shaxarlari), Nukus va To'rtko'l Shaxarlari esa mahmuriy xo'jalik markazlari sifatida tashkil topdilar.

100 dan 500 minggacha axolili katta Shaxarlarga 38,9 %; Shaxar posyolkalari orasida 39 % i 5 dan 10 minggacha axolili posyolkalarga; 43,1 % i esa 10 dan 20 minggacha axolili posyolkalarga to'g'ri keladi.

O'zbekiston Respublikasi xozirgi zamon axoli joylashuvi va urbanizatsiyasining xususiyatlari:

- Shaxar axolisining kichik nisbiy soni;
- maxalliy axolining kam xududiy ko'chib yurishi;
- Shaxarlar tarmog'ida urbanistik tarkibning kam rivojlanganini ko'rsatuvchi kichik va o'rta Shaxarlarning ustunligi;
- Shaxar joylari tarmog'ining voxalarda to'planganligi;
- kichik va o'rta Shaxarlarning iqtisodiy potentsiali kichik bo'lgan xolda sanoat korxonalarini va Shaxar axolisining kam sonli yirik Shaxarlarda to'planganligi;
- ko'pchilik Shaxar va posyolkalar funktsional tarkibining (rivojlanganligi);
- Shaxar tashkiliy asosi, axoli joylariaro xizmat ko'rsatish tizimi va ayniqsa ommaviy dam olish tarmoqpari kam rivojlangan maxalliy tuman markazlarining ustunligi;
- intensiv sug'orish dexqonchiligi tumanlarida qishloq axoli joylashuvining mayda qishloqlardan iboratligi;
- qishloq urbanizatsiyalash jarayonida Shaxar va qishloq axolisi o'zaro aloqalarining kuchayib borishida yirik qishloqlar rolining o'sib borishi.

Respublika uchun xamma regionlarda anchagina erkin mexnat resurslarining mavjudligi xarakterlidir, bu mexnat resurslari kerakli professional tayyorgarlikka ega emaslar.

Shaxarlarning xozirgi rivojlanishi respublikada muntazam urbanizatsiyalashish sharoitlarida kechmoqda. U jamiyatning barcha soxalarini

qamrab, Shaxarlarning iqtisodiy axamiyatiga, ularning ishlab chiqarishdagi va axolini ijgimoiy tashkil etishdagi roliga xal qiluvchi ta'sir ko'rsatmoqda.

Loyiha usuli yoki uslubiyatini tanlash: Loyihalanayotgan diplom ish mavzusi Gurlan tumani Sahtiyon qishlog'ining xududiy arxtitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish milliy va zamonaviy uslub uyg'unligida loyixalandi.

Aholi o'rtasida anketa so'rovnomasini o'tkazilishi natijasida aholiga kelgusida qancha turar joy binolari kerakligi haqidagi arizalarni o'rganish va tahlil qilish, undan tashqari yangi shaharchaga aholi uchun zarur bo'lgan sifatli hizmat ko'rsatish shahobchalari, dam olish maskanlarini barpo etish bo'yicha loyihaviy takliflarni ishlab chiqishni o'z ichiga oladi.

Loyihani atroflicha yoritish: Loyixalayotgan Gurlan tumani Sahtiyon qishlog'ining xududiy arxtitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish axoli extiyojidan kelib chiqqan xolda loyixalangan. Loyixalanayotgan xudud Mangit YAngibozor magistral yo'lining shimoliy sharq qismida 30 ga er maydoni ajratib olindi. Unda mavjud binolardan biri eski em xashak omborxonasi binosidir. Ushbu loyihalanayotgan maydon eski em xashak omborini snos qilinib ushbu xududda yangi turar joy majmuasini loyihalash bo'yicha takliflar berilgan.

Men loyixalayotgan axoli punkti qurilishi reja bo'yicha 4 bosqichda amalga oshiriladi, dastlabki bosqichda asosiy yo'llar loyihalangani. Ikkinchi bosqichda maishiy xazmat ko'rsatish binolari va boshqa turar joy binolar qurilishlari amalga oshirilishi nazarda tutilgan.

Loyiha bosh reja echimiga ko'ra Gurlan tumani Sahtiyon qishlog'ining xududiy arxtitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlashda Mangit YAngibozor magistral yo'lining janubiy sharq qismida 315 o'rinli maktab binosi va uning sharqiy qismida 140 o'rinli bolalar bog'chasi loyihalangani. Maktab binosining janubiy sharq qismida sport maydonchasi loyihalangani. Maktab binosining radiusi 500 metrni bog'cha binosining radiusi 300 metrni tashkil qiladi. Markazning boshlang'ich qismi asosiy shimoliy g'arbdan janubiy sharq tomonga yo'nalgan bir

biriga parallel joylashgan yo‘llar kesishuvida sharq tomonga qarata yo‘l loyihalangan.

Ushbu yo‘llar axolini maktab va bog‘cha joylashgan markaziy qismiga yo‘naltirilgan. Maktabning janubiy sharq qismida ham kam qavatli turar joy binolari loyihalangan. Mangit Yangibozor yo‘liga parallel joylashgan maktab binosining garbiy qismida o‘rta qavatli turar joy binolaridan 10 ta bino loyihalaniishi rejalashtirilgan.

Shu bilan bir qatorda, qishloq aholi punktlari uchun printsiplial jihatdan yangi loyihalarning ishlab chiqilishida xududlarning iqlimiy, demografik, milliy shart-sharoitlarini va aholining maishiy ehtiyojlarini hisobga olgan holda bozor iqtisodiyotining rivojlanishi yangi tipdagi turar joy binolari qurilishi uchun o‘z shaxsiy er uchastkasida yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish imkonini beradigan quyidagi “O‘zqishloqloyiha” instituti tomonidan ishlab chiqilgan namunaviy uy-joylar loyiha turlari (tiplari) tavsiya etilmoqda:

ustaning uyi (kulolchilik, temirsozlik, ip gazlamalar, gilamlar to‘qish va hokazo);

boshlang‘ich maktab o‘qituvchisining uyi;

tibbiyot bo‘limi (punkti), dorixona va umumiy tahlillarni bajaradigan laboratoriyasi bor shifokorning uyi;

fermerning uyi;

nonvoyxonaga ega uy;

choyxonaga ega uy;

do‘koni bor uy va xokazo.

Loyixalayotgan Gurlan tumani Sahtiyon qishlog‘ining xududiy arxtitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqishda barcha talablar bajarilgan bo‘lib axoli uchun kelgusida barcha shart-sharoitlar yaratish rejalashtirilgan.

Qurilish texnologiya qismi

Bitiruvchi:



Rajabov R

Mastlahatchi:



Ahmedov Q

Mas'ul rahbar:



Umirov R

QURILISH MAYDONINING INJENER TAYYORGARLIGI

Qurilishni tashkiliy-texnologik tayyorlashning bosqichlari, maydon ichida va maydon tashqarisida bajariladigan tayyorgarlik ishlari, reja-iqtisodiy tadbirlarni o`z ichiga oladi.

Bugungi kunda qurilish ishlab-chiqarish texnologiyalarining, uni tashkil etish va boshqarishning takomillashib borishi, qurilish ishlab chiqarishini oldindan sifatli tayyorlashni talab qiladi. Ma'lumki, sanoat binolari, inshootlar, turar-joy va madaniy-mayishiy binolar qurilishida xar-xil vazirlik, ma'muriyatlarga buysinadigan qurilish-montaj tashkilotlari ishtirok etadilar. Bu esa, o`z vaqtida ularning bir-biri bilan bog`liqlikda ishlashlarini ta'minlovchi, tugal o`ylangan rejani talab qiladi. Shuning uchun SNiP 3.01.01-85 me'yoriy xujjatiga asosan, yangi bino va inshootlarni qurish, mavjud binolarni kengaytirish, rekonstruktsiya qilishni boshlashdan oldin tex-nik-tashkiliy tayyorgarlik ishlari bajariladi.

Ma'lumki, qurilish ishlab chiqarishini tashkiliy-texnologik tayyorlashning to`rt bosqichi mavjud:

qurilish ishlab - chiqarishini umumiy tayyorlash;

qurilish tashkilotlari ishini tayyorlash;

ob'ektlarni qurish uchun tayyorlash;

ishlab-chiqarish jarayonlarini va brigadalar ishini tayyorlash.

QURILISH MONTAJ VA MUTAXASSISLASHGAN TASHKILOTLARNI JALB ETISH

Bosh pudrat va yordamchi pudrat qurilish tashkilotlari «kapital qurilish pudrat shartnomalari qoidalari» me'yoriy xujjati asosida ishlaydilar. Shartnoma tuzishga qurilishi lozim bo`lgan ob'ektlarning tasdiqlangan va davlat rejasiga kiritilgan titul ruyxati asos buladi. Pudrat sharnomasida qurilish ishlari xajmi, turi, narxi va boshqa shartlar ko`rsatiladi. Qurilishning bir yildan oshadigan muddatlarida pudrat bosh shartnomasi tuzilib, unga tayangan xolda yilik pudrat shartnomalari tuziladi.

JIXOZLAR VA RESURSLAR BILAN TA'MINLASH

Bu shartni bajarishda konstruktsiya, buyum, material va yarim fabrikatlar buyurtmalarini zavod va kombinatlar bo'yicha joylashtirish muximdir. Qurilish tashkilotlaridan buyurtmani olgan zavod uz imkoniyatlarini kurib chikadi va zarur deb xisoblasa individual buyurtmalar uchun maxsus jixoz koliplar tayyorlaydi.

OB'EKTNI QURILISH UCHUN TAYYORLASH TADBIRLARI

Ob'ektni qurilish uchun tayyorlash ishlari qurilish loyixa-smeta xujjatlarini qabul qilib olish va ularni kayta ishlash bilan boshlanadi. Bunda ishchi loyixa, kushma smeta xisoblari, ish chizmalar, smetalar urganilib material-texnik resurslarga talab aniqlanadi. Ish chizmalarning tulikligiga ishonch xosil qilingach, tashkilot bosh muxandisi imzosi bilan qurilish ishlarini boshlashga kirishiladi. Mutaxassislar tomonidan qurilish ishlab chiqarish loyixasi (PPR) tuziladi.

LOYIHALANAYOTGAN HUDUDDA YO'LLARNI TA'MIRLASH VA QURISH ISHLARI TEXNOLOGIYASI

Qishloq qurilish taraqiyotti rivojini tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublika Prezidentining 2015 yil 7 yanvardagi 2015 yilda Qishloq joylarida na'munaviy loyihalar bo'yicha yakka tartibdagi uy-joylar qurilishi dasturi va 2016 yilgi qurilish asosiy parametrlari to'g'risidagi PQ-2282-sonli qaroriga asosan Xorazm viloyatidagi na'munaviy loyihalar asosida qurilayotgan uy-joylar to'g'risidagi qarori ma'qullanib ish olib borilmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi avtomobil yo'llari tarmog'ining umumiy uzunligi 183783 km bo'lib, shundan umumiy foydalanishdagi avtomobil yo'llari 42654 km ni, ichki xo'jalik yo'llari 79465 km ni, shaharlar, tuman markazlari va aholi yashash joylari yo'llari va ko'chalari 61788 km ni tashkil qiladi.

Zamonaviy avtomobil yo'llari murakkab muxandislik inshootlaridir. Ular avtomobil oqimlarining yuqori tezliklarda harakatlanish imkoniyatlarini

ta'minlashi zarur. Ularni shunday tarzda ta'mirlash va saqlash lozimki, bunda avtomobil yo'lining xizmat muddatlari va o'tkazuvchanlik qobiliyati oshirilsin hamda yo'ldagi harakat xavfsizligi ta'minlansin.

Yo'llar juda ko'p tabiiy omillar (quyosh nurida qizish, muzlash va erish, yog'ingarchiliklar, sizot suvlari va yo'l ustidan oqib tushadigan suvdan namlanish) ta'sirida bo'ladi. Bu hususiyatlarni yo'llardan foydalanish davrida yo'l-foydalanish xizmatining xodimlari hisobga olishlari kerak va bu xodimlar yil davomida yo'lining uzoq muddat normal ishlashini ta'minlashlari zarur.


Loyihalananayotgan xudud yo'llari tasnifi

№	Ko'rsatkichlar nomlari	O'l.bir	Miqdori
1	Yo'l darajasi	Daraja	V
2	Yo'l uzunligi	km	10,16
3	Harakat tasmasi soni	dona	1
4	Harakat tasmasi kengligi	m	4.5
5	Qatnov qismi kengligi	m	4.5
6	Yo'l yoqasi kengligi	m	0.75
7	Yo'l qoplamasi kundalang nishabligi	%o	15
8	Yo'l yoqasining kundalang nishabligi	%o	40
9	Yo'l maksimal bo'ylama qiyaligi	%o	60
10	Yo'l poyi kengligi	m	6,0
11	Rejada egrining eng kichik qiymati	m	300

Avtomobil yo'llarini qayta qurish yo'li bilan ta'mirlash va ta'mirlash bo'yicha ishlarni rejalashtirish, loyiha-smeta hujjatlarini tuzish va ishlarni amalga oshirish paytida eng kam yer maydonlarini egallash va tabiiy zahiralardan eng kam miqdorlarda foydalanish, yerning unumdor qatlamini saqlab qolish, yerning ustki qismining, suv havzalarining va atmosferaning ifloslanishining oldini olish, hamda salbiy geo-va gidrologik hodisalar yuzaga kelishi ehtimolining, tabiat go'zalligiga putur yetkazish va hayvonlarning, qushlarning va o'simliklarning bevosita yo'q qilinishi yoki ularning yashash sharoitlarining yomonlashuviga olib keluvchi xatti-harakatlarning oldini olish yuzasidan tadbirlar o'tkazilishi ko'zda tutilishi lozim.

Avtomobil yo'lining yo'l to'shamasi tuzilmasi

Avtomobil yo'lida quyidagi turdagi yo'l to'shamasi turlari uchraydi Ushbu tushamalarni yo'l o'qiga bog'lanishi quyidagi chizmada keltirilgan.



1- rasm. Avtomobil yo'lining ko'ndalang kesimi

ELEKTR TA'MINOTI TIZIMI TEKNOLOGIYASI

Elektr energiyasining 70% gacha sanoat korxonalarida iste'mol qilib, asosiy elektr energiya iste'molchilari xisoblanadi. Agar energotizimda, shaxar va qishloq elektr tarmoqlarida faqat 3 fazali 50 Gts chastotali o'zgaruvchan tok ishlatilsa, sanoat korxonalarining elektr ta'minoti tizimida elektr energiyasi bir fazali yoki uch fazali, turli chastotali va kuchlanishli o'zgaruvchan tok ko'rinishida,

o'zgartiruvchi podstantsiyalardan olinadigan o'zgarimas tok ko'rinishida ishlatiladi. Elektr ta'minoti masalalari xar qanday korxonaga uchun muhim hisoblanadi. Elektr ta'minoti tizimida kuchlanishi 1000 V gacha va undan yuqori bo'lgan elektr tarmoqlari xamda transformatorli va o'zgartirgichli podstantsiyalarni o'z ichiga oladi. Uning vazifasi xalq xo'jaligi ob'ektlaridagi elektr ishlatuvchilarni va iste'molchilarni kerakli ko'rsatkichlarga ega bo'lgan elektr energiyasi bilan ta'minlashdan iboratdir. Elektr ishlatuvchilari (EI) deb elektr energiyasini texnologik jarayonni yurgizish uchun qabul qiluvchi turli mashina va mexanizmlarning elektr dvigatellari, elektr pechlar, elektroliz qurilmalari, payvandlash mashinalari, yoritish tizimi va boshqalar kiradi. Elektr ishlatuvchilarning ma'lum guruxiga elektr iste'molchilari (I) deyiladi.

Barcha elektr stantsiyalar O'zbekiston energetika tizimiga 110, 220 va 500 kV kuchlanishli xavo liniyalari bilan energetika tizimiga birlashtirilgan. Energetika tizimiga birlashtirish natijasida elektr ta'minoti ishonchligi ortadi, stantsiyalardagi rezerv agregatlar soni va quvvati kamayadi, elektr energiyasini bir regiondan ikkinchi regionga uzatish imkoni paydo bo'ladi. Elektr ta'minoti tizimi 2 qismdan iborat bo'lib, tashqi elektr ta'minotida 35-110 kVli havo liniyalari, elektr energiyasini iste'molchilarga tarqatish uchun kabel liniyalari. Tokli va shinali o'tkazgichlar, ba'zan havo liniyalari ishlatiladi.

Havo liniyalari asosan 35-110 kV li kuchlanishlarga quriladi, ular bir zanjirli, ikki zanjirli va faza simlari 2 ta va undan ortiq bo'lgan bo'ladi. Asosan metallardan va temir betonlardan yasalgan tayanchlar, alyuminiy (ko'p simli) simlar, chinni yoki shisha izolyatorlar qo'llaniladi. Kuchlanishi 1000V dan yuqori bo'lgan elektr apparatlari tizimning asosiy elementlari bo'lgan liniyalar va transformatorlarni hamda boshqa elektr jihozlarni ulash va uzish, avariya hamda normal bo'lmagan rejimlarda himoyalash uchun ishlatiladi. Ularga kuchlanishi 35-110 kVli avtomatik ajratgich va qisqa tutashtirgichlar, 6-500 kV li ajratgichlar, uzgichlar, tok transformatorlari, kuchlanish transformatorlari, razryadniklar, apparatlarning uzuvchi-ulovchi yuritmalari va boshqalar kiradi.

LOYIHALANAYOTGAN HUDUDDA SUV TA'MINOTI TIZIMLARINI QURISH ISHLARI TEXNOLOGIYASI

Suv ta'minoti-bu suv manbalari, nasos qurilmalari, suv tozalash inshootlar, ichimlik suvini iste'molchilarga yetkazib beruvchi tarmoqlar va boshqa ko'pgina moslama, qurilma, idishlardan iborat tizimdir.

Suv ta'minoti sistemalari – suvni manbaadan olib, tozalab, zararsizlantirib, saqlab va iste'molchiga yetkazib berish uchun xizmat kiluvchi muxandislik inshootlar yig'imidan iboratdir.

Ular quyidagicha klassifikatsiya kilinadi:

1. Ob'ekt turiga qarab (iste'molchi) SHaxar, posyolka, sanoat , qishloq ho'jaligi, temir yo'l va h.k. suv ta'minoti sistemalari.
2. Vazifasiga qarab: Ichimlik-ho'jalik, ishlab chiqarish, yong'inga qarshi suv ta'minoti sistemalari.
3. Suvni uzatish usuliga qarab: Bosimli va bosimsiz suv ta'minoti sistemalari.
4. Suv manbalari turiga qarab:
Er ustki manbalaridan (ko'l,daryo,kanal, suv ombori, dengiz) suv oluvchi va yer ostki manbalaridan suv oluvchi suv ta'minoti sistemalari (S.T.S).

Suv bilan ta'minlash uchun suvning tabiiy manbalaridan foydalaniladi: bularga yerni yuzasida joylashgan ochiq suv havzalari (dengizlar, daryolar, suv omborlari, ko'llar) va yer ostida joylashgan (artezian suvlari, yer osti suvlari, buloqlar) yopiq suvlar kiradi. Aholi ehtiyojini qondirish uchun ko'proq yer osti suvlaridan foydalaniladi.

Tabiiy manbalardan suv olish, ularni tozalash va iste'molchiga yetkazishda quyidagi moslamalardan foydalaniladi:

- suv tortuvchi (qabul kiluvchi) inshootlar;
- I va II bosqich nasos stantsiyalari;
- vodovodlar va vodoprovod tarmoqlari.

Alohida xo'jalik-ichimlik, yong'inga qarshi va ishlab chiqarish suv ta'minoti sistemalari yong'in havfi yuqori bo'lgan toifaga kiruvchi sanoat korxonalarida ishlatiladi va unda maxsus suv tayyorlagichga (yumshatish, temirdan xolos etish, sovutish va h.k.) ega bo'lgan yong'inga qarshi maxsus avtomat sistema va ichimlik suvi bo'lmagan suv manbalari talab kilinadi.

Ichimlik suvini uzluksiz ta'minlashda xalqa shaklida suv ta'minoti muhim ahamiyatga ega. Bunda, avariya holati yuzaga kelsa, unda shikast yetgan uchastkani surma klapan (zadvijka) bilan o'chirib turish mumkin, bunda umumiy suv ta'minoti boshqa quvurlar orqali davom etaveradi.

Binoning ikki tomonidan kiritilgan tarmoqlar shahar suv ta'minoti tarmoqlarining qarama-qarshi yoki yon tomoniga ulanishi shart. Suv kiritish tarmoqlari quvirlarini nishabi shahar suv ta'minoti tarmog'i tomoniga quvurdagi suvlarni chiqarib yuborishi maqsadida $j = 0,003 - 0,005$ nishablik bilan yotqiziladi.

Suv kiritish tarmog'ini sinash va qabul qilish tashqi suv ta'minoti tarmoqlari uchun o'rnatilgan talablar asosida (QMQ 02.04.01-97) amalga oshiriladi. Tarmoqni burilish yerlarida quvurlarni ulangan yerlariga kuchlanish tushmasligi uchun tirgaklar o'rnatiladi. Suv kiritish tarmog'ini rejada joylashtirish vaqtida uni boshqa tarmoqlarga to'g'ri burchak ostida kesishiga ahamiyat beriladi.

LOYIHALANAYOTGAN HUDUDDA GAZ TA'MINOTI TIZIMLARINI QURISH ISHLARI TEXNOLOGIYASI

Taqsimlash gaz quvurlari gazni turar joy binolariga, sanoat va kommunal korxonalariga yetkazib beradi. O'tkazilishi bo'yicha esa xalqasimon, boshi berk shaklida bo'ladi. Uy ichi gaz quvurlari esa gazni turar-joy binosi ichida tarqatib,

gaz asboblariga yetkazib beradi. Gaz quvurlari, undagi bosim va gaz quvurining qo'llanishiga qarab qo'yidagilarga bo'linadi:

qo'llanish bo'yicha:

- a) magistral gaz quvurlari;
- b) shahar gaz quvuri;
- v) sanoat gaz quvurlari.

Magistral gaz quvurlari o'ta yuqori bosimda ishlab (5,5 - 10 MPa), gaz konidan hududlarga gaz etqazib beradi.

Hudud gaz quvurlari quyidagilarga bo'linadi:

- 1) tarkatish gaz quvurlari;
- 2) iste'molchilarga tarmoq gaz quvurlari;
- 3) uy ichi gaz quvurlari.

Taqsimlash gaz quvurlari gazni turar joy binolariga, sanoat va kommunal korxonalariga etqazib beradi. O'tqazilishi bo'yicha esa halkasimon, boshi berk shaklida bo'ladi. Abonent tarmoqlari gazni taqsimlash gaz quvuridan iste'molchilarga etqazadi. Uy ichi gaz quvurlari esa gazni turarjoy binosi ichida tarkatib, gaz asboblariga etqazib beradi.

Gazning bosimiga qarab shahar gaz quvurlari qo'yidagilarga bo'linadi:

- 1) past bosim gaz quvurlari 0,002 - 0,005 MPa ;
 - a) agarda sun'iy gaz berilayotgan bo'lsa 200 mm suv.ust. (0,002MPa)
1. Bevosita quruvchi ishchilar uchun xavfsizlik qoidalariga rioya qilish kursatkichi, brigada yoki qurilish maydonchasi miqyosida quyidagi formula bilan foiz xisobida aniqlanadi.

$$K_{\text{it}} = \frac{\sum B_{\text{it}} - T_{\text{it}}}{\sum B_{\text{it}}} \cdot 100\%$$

bunda, $\sum B_{\text{it}}$ - jami ishchilar soni;

T - tartibbuzarlar soni.

2. Qurilish uskunalari boshqaruvchi ishchilar uchun umumiy mehnat xavfsizligiga ushbu ifoda orqali belgilanishi mumkin.

$$K_y = \frac{\sum X_0 - X_E}{\sum X_0} \cdot 100\%$$

bunda, $\sum X_0$ - jami xavfli omillar soni:

X_B - bartaraf etilmagan xavfli omillar.

3. Muhandis va usto raxbarlar uchun rejali tadbirlarni bajarish ko`rsatkichi quyidagi tenglama bilan ifodalanishi mumkin:

$$K_M = \frac{\sum T - B_T}{\sum T} \cdot 100\%$$

bunda, $\sum T$ - jami tadbirlar soni:

B_T - bajarilmagan tadbirlar soni.

4. Qurilish maydonchasi yoki boshqarma miqyosida mehnat xavfsizligi- ning o`rtacha ko`rsatkichi quyidagi shaklda ifodalanishi mumkin;

$$K_0 = \frac{(K_H + K_y + K_M)}{3}$$

Qurilishda xavfsizlikni yuqoridagi ko`rsatkichlar yordamida ifodalash uchun quyidagi xavfsizlik chegaralari qabul qilinishi maqsadga muvofiqdir: ahlo - $K_0 \geq 96$ foiz;

yaxshi - $K_0 \geq 86 - 95$ foiz;

qoniqarli - $K_0 \geq 70 - 85$ foiz;

qoniqarsiz - $K_0 \leq 69$ foiz.

IV. ISHLAB CHIQRISH SANITARIYASI VA GIGIENASI

QURILISHDA MEHNAT SANITARIYASINING VAZIFALARI

Xar qanday jismoniy mexnat jarayonida ishlab chiqarish muxitining odam organizmiga salbiy tahsiri bo`ladi, chunki mushaklarning kuch tahsirida uzayib qisqarishi ko`p marotaba takrorlanishi evaziga markaziy nerv tolalarida zo`riqish xosil bo`ladi. SHu sababli, mexnatkashning xavfsizligini tahminlamagan sharoitda ishlashi markaziy nerv

tizimini tezda toliqishiga va butun vujudini charchashiga olib keladi. Buning natijasida odamning sezuvchanligi va ishlash qobiliyati keskin pasayib boradi.

Zararli mexnat sharoitining surunkali tahsiridan kishi salomatligi sekin–asta yomonlashib boraveradi, (ko`rish va eshitish qobiliyatini pasayishi, titroq kasali, ruxiy toliqishi va x.k.). Buning natijasida odamning ijobiy mexnat qilish qobiliyati qisman yoki butkul yo`qolib boradi. Bu xol kasb kasalligi deb yuritiladi. Ishchilarning sog`lig`iga bevosita tahsir ko`rsatuvchi omillar qatoriga mexnat sharoiti, iqlim sharoiti, ish joyidagi zararli shovqin va tebranishlar, yorug`likning yetishmasligi, zararli chang va gazlarning mehyoridan oshib ketganligi va boshqalar kiradi. Bularning inson salomatligiga salbiy tahsirini oldini olish tadbirlarini belgilash bilan ishlab chiqarish sanitariyasi va gigienasi fani shug`ullanadi.

Uning asosiy vazifalari yuqorida sanab o`tilgan omillarning kishi organizmiga qanday tahsir ko`rsatishi va uning oqibatini o`rganish bilan bir qatorda, unga qarshi chora tadbirlarni ishlab chiqish va zararli omillarni ruxsat etilgan bezarar mehyorini belgilab berishdan iboratdir.

SHunday qilib, qurilishda ishlab chiqarish sanitariyasi tozalik va ozodalik bo`yicha tadbirlar majmuasini to`zishdan iborat bo`lib, maqsadi ishlab chiqarish korxonalarida sog`lom mehnat sharoitini yaratishdir.

Quruvchilikni o`ziga xos jixatlari, yahni ish joyining doim o`zgarib turishi, ochiq xavoda bo`lishi, bir nechta ish jarayonlarini bajara olishi va boshqalar ish joyida mo`htadil iqlim sharoitini yaratishga imkon bermaydi.

SHu sababdan, salomatlik va ozodalik qoidalari quruvchilar uchun ish joylarida ijtimoiy va tibbiy xizmat ko`rsatish borasida maxsus uslubiy yo`llarni izlashni taqozo qiladi.

Mexnat jarayonida turli vaziyatda odamga xar xil salbiy omillar tahsir qiladi. Bularni ishlab chiqarishdagi zararli omillar deb yuritiladi va ularning insonga o`zoq tahsiri natijasida paydo bo`lgan xastaliklarni esa, kasb kasalligi deb ataladi.

Bundan tashqari, barcha zararli omillarni odamga tahsir xususiyatlariga qarab to`rtta yiriklashgan guruxlarga toifalash mumkin, yahni jismoniy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik.

Jismoniy zararli omillarga zararli gaz va chang moddalari, shovqin va tebranishlar, xamda qoniqarsiz iqlim va yorug`lik sharoitlari kiradi.

Kimyoviy zararli omillariga esa zaxarlanish xollarini chaqiruvchilar kiradi.

Biologik zararli omillarga inson tanasiga mikroblar orqali tahsir qiluvchilar kiradi.

Psixofiziologik zararli omillarga esa ishchining ruxiyati va shaxsoniyatiga salbiy tahsir ko`rsatuvchilar kiradi.

QURILISH LOYIXALARIDA SANITARIYA TALABLARINI AKS ETTIRILISHI

Qurilishda sanitariya va mexnat gigienasi masalalari bir qator meg`yoriy xujjatlar asosida rejalashtiriladi. Bu xujjaatlarga sanoat korxonalarini loyixalashtirishda mavjud sanitariya meg`yorlari, “Sanoat korxonalarini bosh rejasini loyixalash meg`yorlari”, “Qurilish tashkilotlarining yordamchi bino va xonalarini loyixalash bo`yicha ko`rsatma” (SN-276-81) va boshqalar kiradi. Bu xujjatlarning asosiy vazifasi sog`lom mexnat sharoitini yaratish yo`li bilan jaroxlanish va kasallikni oldini olishdan iborat.

Bularda sanoat korxonalarining loyixalash, qurish va foydalanish davrida sanitariya talablarini rejalashtirish chora-tadbirlari berilgan.

Sanoat korxonalarida ajralib chiqadigan va ishchi muxitga tarqaladigan xar xil zararli chang va zaxarli gaz moddalarini odam uchun zararsiz ruxsat etilgan miqdori – (REM) ni belgilab beradi. Ishchi xavo muxiti deb pol yoki yer satxidan to novcha odamning nafas olish ag`zosini balandligiga teng (2, Om), bo`lgan ish joylaridagi bo`shliq tushuniladi.

Ana shu bo'shliqda tarqalishi mumkin bo'lgan ayrim zaxarli chang yoki gaz moddalarning miqdorini zararsiz darajada bo'lmog'ini tenglama $S/REM \leq 1$ ifodasi shaklida eng yuqori qiymatini belgilab beradi. Agar ishchi muxitda bir vaqitni o'zida bir necha xar xil zaxarli moddalar ishtiroki mavjud bo'lsa, ularning yig'indisi miqdori 1-dan oshmasligi shart., yag'ni

$$\frac{C}{P \ni M} + \frac{C}{P \ni M} + \frac{C}{P \ni M} \leq 1$$

Bunda, S, S₁, S₂, S₃, - muxitdagi zaxarli moddalarning xaqiqiy miqdorlari, mg/m³;

REM, REM₁, REM₂, REM₃, - shu moddalarning ruxsat etilgan zarrachasi, miqdorlari, mg/m³

SN 276-81 sanitariya meg'yolari talabiga ko'ra, sanoat korxonolari qurilish maydonlarida tashkil qilinishi shart bo'lgan ijtimoi bino va xonalarni tarkibiga yechinib-kiyinadigan, yuvinadigan, ovqatlanadigan, tibbiy yordam ko'rsatadigan, dam oladigan kiyim quritish uchun mo'ljallangan xonalar kiradi.

Qurilish tashkilotlari uchun bu kabi ijtimoiy xonalarni ko'chma xolda tashkil qilish iqtisodiyot nuqtai nazaridan ancha tejamli va mag'qul xisoblanadi.

Qurilish sanoatiga xos sanitar-gigenik talablarni va zaxarli omillarni o'z vaqtida yaxshi o'zlashtirish, muxandis va tibbiyot xodimlariga xech qanday qiyinchiliksiz, ishchilarning salomatligini ximoya qila oladigan zaruriy tadbirlarni to'zish va o'z vaqtida joriy qilish imkoniyatini beradi.

Mexnat gigenasi va ishlab chiqarish sanitariyasi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni yechishda va sog'lom mexnat sharoitlarini yaratishda texnika taraqqiyoti yutuqlaridan unumli foydalanadi. Bu ishlarni amalga oshirish tartibot jarayonlarini masofadan turib boshqarish, ishchilarni xavfli muxitdan olib chiqish, zaxarli moddalar ajratuvchi uskunalarni ochiq xavoda joylashtirish, ishlab chiqarishda xavoning tozaligini avtomatik nazorat qilishni joriy qilish, zaxarli va zaxarli kimyoviy moddalarni yutish qobilyatiga ega bo'lgan qurilish matriallaridan foydalanish binoning qurilish moslamalarini reja asosida xar xil

oksidlovchi moddalar bilan tez-tez qayta ishlash, qo`l mexnati talab qiladigan jarayonlarni mexanizatsiyalashtirish va zamonaviy asbob uskunalarni qo`llash, shuningdek ishchilarning sog`lig`ini ximoya qiladigan kiyimlardan va yakka tartibdagi ximoyalanish vositalaridan foydalanish, xamda tozalovchi va yutuvchi moddalarni keng qo`llash zarur deb xisoblanadi.

Yuqorida sanab o`tilgan chora-tadbirlarning amalda bajarilishi, qurilish, sanoat korxonalarida mexnat sharoitining tubdan o`zgarishiga mexnat unumdorligini oshishiga, xamda xalq xo`jaligi rejalarini muddatidan ilgari va mexnat xavsizligi talablariga to`liq javob beradigan sharoitlarda bajarilishiga keng imkoniyat yaratadi.

V. ELEKTR XAVFSIZLIGI ASOSLARI

Elektr tokining inson tanasiga ta`siri

Elektr tokining inson tanasiga tahsiri uch xilda, yahni tok urishi, elektr jarohati va o`lim fojiasi ko`rinishlarida sodir bo`lishi mumkin. Tok urishi deb, tirik organizmni boshqaruvchi nerv tolalari va mushaklarining elektr tahsirida g`ayri tabiiy kiska-rishiga aytiladi. Bunda mushaklarning majburiy deformatsiyalanishi oqibatida tok o`tayotgan ahzolarida og`riq seziladi. Elektr jarohati esa, odam tanasidan o`taetgan tok tahsiridan to`qimalarni shikastlanishi - kuyishiga aytiladi. Bunday hollarda terida darz paydo bo`ladi va teri osti hujayralar jarohatlanadi. Jarohatlanishning eng og`ir ko`rinishi to`qimalarni suyakkacha bo`lgan qatlamlarini kuyishi va ayniqsa yurak, o`pka va miya falaji hisoblanadi.

Elektrdan jarohatlanganda dastlabki tez yordam

Elektrdan jaroqatlangan kishini darhol tokning tahsiridan xalos etib toza havoga, quruq yerga yoki taxta ustiga yotqizish lozim bo`ladi. Agar jaroxatlanuvchining nafas olishi va tomir urishi sezilib tursa, uni orqasiga qulayroq yotkizib, ko`krak tugmalarini va kamarini yechib toza havodan nafas olishiga va tinchligiga xalaqit bermaslik kerak. Doim


axvolidan, yurak urishi va nafas olishidan xabardor bo`lib turmoq talab qilinadi. Nashatir bo`lsa hidlatish mumkin. Agar jarohatlanuvchi nafas olmasa yoki o`qtin-o`qtin xirillashi sezilsa, darhol uni og`zini ochib, tilini tekshirish zarur, agar til tanglayga tiqilib, nafas yo`lini to`sayotgan bo`lsa darhol tilini oldiga tortib, kekirdak yo`lini ochish kerak. SHu tariqa havo yo`li ochiqligi aniqlangandan keyin sunhiy nafas oldirish bilan birga yurakni «massaj» qilish kerak bo`ladi.

Tokdan ajratib olish

Elektr tarmog`iga ulanib, hush - behush holatda turgan odamni qanday qilib xalos etish mumkin? Bunday hollarda 1-rasmda ko`rsatilganidek, o`chirgich, ajratgich (rubilg`nik) yoki probkani chiqarib olish yo`li bilan tokni tez o`chirish kerak bo`ladi (1-rasmda 1,2,3). Agar buni imkoniyati bo`lmasa, biror bir quruq tok o`tkazmaydigan vosita, yog`och yoki plastmass tayoq yordamida elektr simini ajratish, yoki bolta bilan kesib jarohatlanuvchini elektr zanjiridan ozod qilish kerak bo`ladi (1-rasmda 4,5,6). Agar bordi-yu jarohatlanuvchi elektr zanjiriga o`tkazgichni kafti bilan ushlagan holda ulanib qolgan bo`lsa, uni zinhor musht holatida simni siqib turgan panjalarini qo`lingiz bilan ochishga urinmang! Bu o`zingiz uchun ham xavflidir, siz ham zanjirga ulanib qolishingiz muqarrar! Asab va pay tolalari qisqarib panjalarni bukib qo`yganda ularni qayta tiklash oson bo`lmaydi.

SHuning uchun bunday hollarda oyoqqa rezina etik, yo kalish kiygan xolda yoki rezina gilamchani tokli sim ustidan to`shab, uning ustiga oyoq bilan chiqib, jarohatlanuvchining quruq yengidan yoki rezina qo`lqop kiygan bo`lsangiz uni bilagidan yuqoriroq joyidan ikki qo`llab kuch bilan ajratib olishingiz mumkin. Bu tadbirlarni 1000 volg`tdan kam bo`lgan kuchlanishli tarmoqlarda ishlovchi uskunalarda qo`llash ko`zda tutilgan. 1000 volg`tdan yuqori kuchlanishli

tarmoqlardan jarohat- lanuvchilarni ajratish uchun albatta xaloskor qo`liga dielektrik qo`lqop (tok o`tkazmaydigan qo`lkop) va oyog`iga bo`ti kiygan holda dielektrik shtanga yoki maxsus ombir yordamida kiyimning mustahkam joyidan ushlab tortib ajratish zarur.



1-rasm. Elektr tarmog`iga ulanib qolgan odamni zanjirdan ajratib olish

Izoh: 1,2,3, -zanjirni elektr tarmogidan uzib qo`yish; 4.5.6- zanjir tahsiridan odamni ajratib olish.

Bu ishlarni bajarishdan oldin tok o`tkazuvchi hamma faza simlarini oldindan maxsus tayyorlangan (bu moslama elektr xavfi yuqori bo`lgan har bir ish joyida tayyor turishi kerak) o`tkazgich yordamida birlashtirgan qolda jaroqatlanuvchi yotgan joydan eng kamida 10 m nariroqdan yerga ulab qo`yish kerak bo`ladi. Bu tadbir odamni tokdan ajratib olish vaqti cho`zilib qolgan taqdirda unga tahsir etayotgan tokning kuchini qirqadi. Natijada jarohatlanish darajasini yengillatadi. Yerdan qo`l yetmaydigan darajada balandrok joyda elektr tarmog`iga ulanib qolgan odamni, yuqorida qayd qilingan tartiblardan birini qo`llagan qolda jaroqatlanuvchi ostiga yerdan 0,5 - 1,0 m balandlikda pishiqroq matodan yoki kengroq tikilgan ustki kiyimdan foydalanib 2 yoki undan ortiq odam yordamida chodir tutmoq lozim. Buning oqibatida tokdan ajratilgan qushsiz odamni yerga qattiq tushib jaroqatlanishidan asrab qolinadi.

Elektrdan himoyalaniş usullari va vositalari

GOST 12.1.019 - 79 ga asoslanib elektr qurilmalarida turli xil texnik himoya usulari va vositalari birgalikda qo`llaniladi, chunki bitta tadbir odamni to`la himoya qila olmaydi. Zarur himoya vositalari quyidagilardan iborat:

1. Tok o`tkazuvchan qismlarni himoya qobig`i bilan qoplash;

2. Masofali panjara to`siqlar;

3. Daraklagich va to`sqich (blokirovka);

4. SHartli belgilar va suratlar;

5. Kichik kuchlanishli tokdan foydalanish;

6. SHaxsiy himoya vositalari;

7. Erga va no`lga ulagich tizimlar;

8. Avtomatik o`chirgichlar va boshqalar.

Shaxsiy himoya vositalari


Elektr dastgohlaridan foydalanishda tasodifan paydo bo`lgan tokdan himoyalash maqsadida (GOST 12.1.009 - 86) maxsus elektr himoyalagich vositalar qo`llaniladi. Bu vositalar asosiy va yordamchi turlarga bo`linadi.

Elektrdan himoyalagich vositalar deb elektr tokidan jarohatlanishni oldini olish uchun xizmat qiladigan har xil moslama va asbob uskunalarga aytiladi. Quyidagi 4-rasmda ulardan bahzi namunalar keltirilgan.

Himoyalagich vositalar o`zlarini vazifalariga qarab asosiy va yordamchi turlarga bo`linadi.

Asosiy elektr himoyallagich vositalarga rezina qo`lqoplar dastasi tok o`tkazmaydigan qilib ishlangan tok qidiruvchi va har xil uskuna va asboblari, 1000 V dan yuqori bo`lgan kuchlanishli elektr tarmoqlarida ishlatiladigan dielektrik shtangalar, qisqich ombirlar, yuqori kuchlanishli o`lchagichlar va boshqalar kiradi. Bu himoya vositalari uzoq muddat davomida tok kuchiga chiday oladi shuning uchun ham ular orqali elektr toki tahsirida bo`lgan uskunalar bilan tutashish ruxsat etiladi.

Qo`shimcha himoya vositalariga dielektrik kalish, rezina etik, gilamchalar, panjara - taglik va boshqalar kiradi. Bu vositalar to`la xavfsizlikni gahminlayolmaydi, ularni vazifasi asosiy himoya vositalariga ko`shimcha ravishda muhofaza darajasini tahminlashdan iborat. Barcha himoya vositalari har gal ishlatishdan oldin sinchiklab nazariy kuzatuvdan o`tkaziladi va har 6-12 oyda bir marta maxsus sinab ko`riladi.



4-rasm. Elektr himoyallagich vositalari.

Izoh: Asosiy vositalar a) dielektrik shtangalar; b) tekdan himoyalangan ombir; v)ko`lqop;

z)tok o`lchagich ombir.

Yordamchi vositalar. g) boti;d) kalish;e) rezina gilamcha;yo)dielektrik taglik panjara; j)har xil qo`l asboblari;

VI. AHOLI TURAR JOYLARI XUDUDINI LOYIXALASHDA YONG`IN XAVFSIZLIGI

Aholi turar joylari hududiy bosh tarxini loyihalashda, sanitariya va yong`in xavfsizligi muammolari, iqtisodiy mutanosiblik bilan birgalikda yechilishi lozim, yahni odamlarni ijtimoiy turmush sharoitini yaxshilash bilan barobar, bir qator quyidagi tadbirlarni bajarilishi shart hisoblanadi, jumladan: aholi turar joylari hududini sanoat korxonalarini chegarasidan sanitariya himoya masofasi bilan muhofazalash; turar joy binolari va jamoa binolari o`rtasidagi ruxsat etilgan sanitariya va yong`in xavfsizligi talablari bo`yicha minimal himoya masofasini tahminlash; o`t o`chirish mexanizmlarini o`z vaqtida ishlashligi uchun, suv havzalariga yoki gidrant quduqlariga yaqin yondosha olishini tahminlash; yong`in deposini joylashtirishda ularni o`t o`chirish paytida har bir bino va inshootga yaqin bora olish imkonini beruvchi yo`llar bilan tahminlash va boshqalar.


Qurilish mehyorlari sanoat korxonalarini aholi yashaydigan hududlarda joylashtirishni tahqiqalaydi. Aholi yashaydigan, har qanday qishloq va shahar hududi chegarasida zararli chiqindilar chiqaruvchi yoki yonish va portlash xavfi mavjud bo`lgan ishlab chiqarish korxonalarini joylashtirish man etiladi. Sanoat korxonalarining hududiy chegarasidan to turar joy va jamoa binolarigacha bo`lgan oraliq masofani, korxonalarining xavflilik sinfiga binoan sanitariya qoidalari va mehyorlari belgilaydi.

Ishlab chiqarish bazalari va ularga tegishli omborxonalar, aholi yashaydigan hududdan tashqarida joylashtiriladi. Neftg` mahsulotlari saqlanadigan bazalar daryo, anhor va zovurlarni hudud chegarasidan chiqish joylaridagi qirg`og`idan ancha past bo`lgan, chuqurliklarda joylashtirish lozim, toki avariya holatida neftg` mahsulotlari daryo o`zaniga oqib tushmasin.

Zamonaviy shahar va qishloqlardagi aholi yashaydigan mahallayu dahalardagi ko`p qavatli binolarning orasidagi sanitariya oraliq masofalari, yong`in xavfsizligi mehyori talab qiladigan yong`inga qarshi uzilish masofasidan bir necha marta katta bo`lishi sababli ikkala mehyor talablarini qondira oladi.

Turar joy massivlarida bino va inshootlar orasidagi masofa yong`in xavfsizligi va insolyatsiya talablarini hisobga olgan holda aniqlanadi. Loyihalash jarayonida ikkalasi uchun ham hisoblanadi va ularning eng kattasi qabul qilinadi.

Binolardagi deraza orqali yoritiladigan xonalarning kuniga 3 soatlik insolyatsiyalanish shartiga binoan, bino va inshootlar orasidagi masofa, deraza qarshisidagi inshootning balandligidan kam bo`lmasligi kerak. CHiz. 1.



CHizma. 1. Binolar orasidagi yong`inga qarshi masofani aniqlash.

Yong`inga qarshi oraliq masofa, yong`in paytida o`t o`chirish uskunalarini ishga tushirish imkonini beruvchi vaqt oralig`ida, yonayotgan binodan chiqayotgan issiqlik nurlari tahsirida atrofdagi binolarda yong`in sodir bo`lmasligini tahminlayoladigan bo`lishi lozim.

Aholi turar joylari hududini loyihalashda yong`in xavfsizligi.

Aholi turar joylari hududiy bosh tarxini loyihalashda, sanitariya va yong`in xavfsizligi muammolari, iqtisodiy mutanosiblik bilan birgalikda echilishi lozim, ya`ni odamlarni ijtimoiy turmush sharoitini yaxshilash bilan barobar, birqator quyidagi tadbirlarni bajarilishi shart xisoblanadi, jumladan: aholi turar joylari hududini sanoat korxonalarini chegarasidan sanitariya himoya masofasi bilan muhofizalash; turar joy binolari va jamoa binolari o`rtasidagi ruxsat etilgan sanitariya va yong`in xavfsizligi talablari bo`yicha minimal himoya masofasini ta`minlash; o`t o`chirish mexanizmlarini o`z vaqtida ishlashligi uchun, suv xavzalariga yoki gidrant quduqlariga yaqin yondoshaolishini ta`minlash; yong`in

deposini joylashtirishda ularni o't o'chirish paytida xarbir bino va inshootga yaqin boraolish imkonini beruvchi yo'llar bilan ta'minlash va boshqalar.

Kurilish me'yorlari sanoat korxonalarini aholi yashaydigan hududlarda joylashtirishni ta'qiqalaydi. Aholi yashaydigan, harqanday qishloq va shahar hududi chegarasida zararli chiqindilar chiqaruvchi yoki yonish va portlash xavfi mavjud bo'lgan ishlab chiqorish korxonalarini joylashtirish ma'n etiladi. Sanoat korxonalarining hududiy chegarasidan to turar joy va jamoa binolarigacha bo'lgan oraliq masofani, korxonalarining xavflilik sinfiga binoan sanitariya qoidalari va me'yorlari belgilaydi.

Ishlab chiqarish bazalari va ularga tegishli omborxonalar, aholi yashaydigan hududdan tashqarida joylashtiriladi. Neft mahsulotlari saqlanadigan bazalar daryo, anhor va zovurlarni hudud chegarasidan chiqish joylaridagi qirg'og'idan ancha past bo'lgan, chuqurliklarda joylashtirish lozim, toki avariya holatida neft mahsulotlari daryo o'zaniga oqib tushmasin.

Zamonaviy shahar va qishloqlardagi aholi yashaydigan mahallayu dahalardagi ko'p qavatli binolarning orasidagi sanitariya oraliq masofalari, yong'in xavfsizligi me'yorlari talab qiladigan yong'inga qarshi uzilish masofasidan birnecha marta katta bo'lishi sababli ikkala me'yor talablarini qondiraoladi.

Turar joy massivlarida bino va inshootlar orasidagi masofa yong'in xavfsizligi va insolyasiya talablarini xisobga olgan holda aniqlanadi. Loyihalash jarayonida ikkalasi uchun ham xisoblanadi va ularning eng kattasi qabul qilinadi.

Binolardagi deraza orqali yoritiladigan xonalarning kuniga 3 soatlik insolyasiyalanish shartiga binoan, bino va inshootlar orasidagi masofa, deraza qarshisidagi inshootning balandligidan kam bo'lmasligi kerak.

Yong'in paytida odamlarni evakuatsiya qilish.

Bino va inshootlarda odamlarni xarakatlanishi zaruriy funksional jarayon hisoblanadi. Bu jarayonni kechish sharoitiga qarab odamlarni harakati me'yoriy yoki majburiy holatda bo'lishi mumkin. Birinchisida odamlarni bino va inshootlarda kundalik ehtiyoj yuzasidan normal harakatlanishi bilan ifodalansa, ikkinchisiga bino yoki xonalardan yong'in yoki zilzila sharoitida odamlarni xavfli muhitdan xavfsiz joyga majburiy ko'chish uchun mo'ljallangan harakati tushiniladi.

Fuqaro va jamoa binolaridagi aloqa xonalari xisoblanmish qismida (koridor, dahliz, rovon-foye, zinaxona va b.r.) esa odamlarni harakatlanishi asosiy funksional jarayonga kiradi. Aloqa tarmoqlari atalmish bunday xonalarning satxi ko'pchilik hollarda, binoning umumiy foydali maydonining 30% dan ziyodroq qismini tashkil etadi. Bunday xonalar bino va inshootlarda qanchalik to'g'ri joylashtirilgan bo'lsa, ularni loyihaviy echimlari shunchalik foydalanish uchun qo'lay bo'ladi.

Bino va inshootlarga yuklanadigan barcha funksional vazifalarga nisbatan, odamlarni ulardagi harakatlanishi bilan bog'liq bo'lgan vazifasi, foydalanish davriga qarab keskin o'zgaruvchan bo'ladi. Ya'ni, bu vazifa hatto asosiy bo'lmagan xonalarda ham, yuklatilish va evakuatsiya davrida odamlarni xavfsiz harakatlanishi asosiy vazifalar darajasiga ko'tariladi. Chunki bunday holatlarda binoda bir vaqtning o'zida odamlar guruh-guruh bo'lib, u yoki bu tomonga qarab majburiy harakatlanishiga to'g'ri keladi.

Odamlarni binodagi harakatlanish jarayoni ayniqsa yong'in yoki biror tabiiy talofat paytida keskin masu'liyatli tus oladi. Bunday hollarda harakatlanishni to'g'ri ta'minlash odamlarni hayotini saqlab qolishga garov bo'laoladi. Harqanday xonada ham yong'in sodir bo'lish ehtimoli mavjud ekanligini inobatga olsak, barcha xonalardan va umuman binodan odamlarni xavfsiz joyga ko'chirish uchun evakuatsiya yo'llarini rejalashtirish majburiy tadbirlardan xisoblanadi.

Evakuatsiya yo'llari va o'lchamlari.

Favqulotda sodir bo'ladigan, inson hayoti uchun xavfli sharoitlar yuzaga kelganda odamlarni xavfsizligini ta'minlash maqsadida bino va inshootlarda KMK 2.01.02-85 va

KMK 2.09.02-85 me'yorlari talablariga binoan evakuatsiya yo'llari va chiqish eshiklari maxsus xisoblar asosida loyihalashtiriladi. Bu tadbirdan kutiladigan asosiy maqsad, bino va inshootlarda xavfli holat sodir bo'lganda evakuatsiya yo'llari, odamlarni belgilangan vaqt ichida, ushlanib qolmasdan tez chiqib ketishlariga imkon yaratib berishini ta'minlashdir.

Aholi turar joylari hududini loyihalashda yong'in xavfsizligi.

Aholi turar joylari hududiy bosh tarxini loyihalashda, sanitariya va yong'in xavfsizligi muammolari, iqtisodiy mutanosiblik bilan birgalikda echilishi lozim, ya'ni odamlarni ijtimoiy turmush sharoitini yaxshilash bilan barobar, birqator quyidagi tadbirlarni bajarilishi shart xisoblanadi, jumladan: aholi turar joylari hududini sanoat korxonalariga chegarasidan sanitariya himoya masofasi bilan muhofizalash; turar joy binolari va jamoa binolari o'rtasidagi ruxsat etilgan sanitariya va yong'in xavfsizligi talablari bo'yicha minimal himoya masofasini ta'minlash; o't o'chirish mexanizmlarini o'z vaqtida ishlashligi uchun, suv xavzalariga yoki gidrant quduqlariga yaqin yondoshaolishini ta'minlash; yong'in deposini joylashtirishda ularni o't o'chirish paytida xarbir bino va inshootga yaqin boraolish imkonini beruvchi yo'llar bilan ta'minlash va boshqalar.

Qurilish me'yorlari sanoat korxonalarini aholi yashaydigan hududlarda joylashtirishni ta'qiqalaydi. Aholi yashaydigan, harqanday qishloq va shahar hududi chegarasida zararli chiqindilar chiqaruvchi yoki yonish va portlash xavfi mavjud bo'lgan ishlab chiqorish korxonalarini joylashtirish ma'n etiladi. Sanoat korxonalarining hududiy chegarasidan to turar joy va jamoa binolarigacha bo'lgan oraliq masofani, korxonalarining xavflilik sinfiga binoan sanitariya qoidalari va me'yorlari belgilaydi.

Ishlab chiqarish bazalari va ularga tegishli omborxonalar, aholi yashaydigan hududdan tashqarida joylashtiriladi. Neft mahsulotlari saqlanadigan bazalar daryo, anhor va zovurlarni hudud chegarasidan chiqish joylaridagi qirg'og'idan ancha past bo'lgan, chuqurliklarda joylashtirish lozim, toki avariya holatida neft mahsulotlari daryo o'zaniga oqib tushmasin.

Zamonaviy shahar va qishloqlardagi aholi yashaydigan mahallayuh dahalardagi ko'p qavatli binolarning orasidagi sanitariya oraliq masofalari, yong'in xavfsizligi me'yori talab qiladigan yong'in qarsi uzilish masofasidan birnecha marta katta bo'lishi sababli ikkala me'yor talablarini qondiraoladi.

Turar joy massivlarida bino va inshootlar orasidagi masofa yong'in xavfsizligi va insolyasiya talablarini xisobga olgan holda aniqlanadi. Loyihalash jarayonida ikkalasi uchun ham xisoblanadi va ularning eng kattasi qabul qilinadi.

Binolardagi deraza orqali yoritiladigan xonalarning kuniga 3 soatlik insolyasiyalanish shartiga binoan, bino va inshootlar orasidagi masofa, deraza qarshisidagi inshootning balandligidan kam bo'lmasligi kerak.

Xulosa

Xulosa.

Inson faoliyatining qadimiy va nafis soxalaridan biri arxitekturadir. Arxitektura bizga ma'lum «qurilishning yuqori bosqichi», oliysi demakdir. Arxitektura – inson faoliyati, maishati, umuman hayoti uchun fazoviy muxit yaratish san'atidir.

Bu erda fazoviy - er satxi ustidagi binolar nazarda tutiladi. Bunday fazoviy muxit yopiq yoki ochiq bo'lishi mumkin. U chegaralovchi, belgilovchi (devor, to'siq, panjara, dov-daraxt, tosh kabi) tuzilishlar yordamida tashkil etiladi

Loyihalananayotgan **Gurlan tumanidagi Sahtiyon qishlog'ini arxitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqishda maktab binolarini asosan pishiq g'isht va yig'ma temir-beton** konstruktiv echimlar qo'llanilgan bo'lib, u tashqi ko'rinishi jihatidan chiroyli va mustahkam bo'lishi fazoviy muxitni shakllantirishda o'ziga xos san'at asarini shakllantirgan.

Arxitekturaning bir - biri bilan chambarchas bog'langan uch qismi mavjud. Bular: konstruksiyasi, funksiyasi, va estetikasidir. Arxitektura asariga quyidagi talablar qo'yiladi.

- Birinchidan, arxitektura asari inson foydalanishiga qulay bo'lsin, qanday maqsadda qurilgan bo'lsa shu maqsadni to'la ado etsin:

- Ikkinchidan, asar o'z-o'zini ko'tara oladigan, tashqi ta'sirlarga bardosh beraoladigan bo'lsin:

- Uchinchidan, asar ko'rinishi ta'sirli, insonni to'qlinlantiradigan bo'lishi kerak.

Loyihalananayotgan **Gurlan tumanida Sahtiyon qishlog'ining hududiy arxitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqishda** yuqorida qayd qilingan talablar bo'lib bu talablar, echimlar, arxitekturaviy, kompozitsion, tipologik va bir qancha bosqichlar asosida loyihalangan.

Loyixalangan **Gurlan tumanida Sahtiyon qishlog'ining hududiy arxitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqib**, Sahtiyon qishlog'i aholisiga zarur bo'lgan shart-sharoitlar yaratildi. Masalan: maktab- bu bino Sahtiyon qishlog'iga eng kerakli bino hisoblanadi, chunki 24-son maktabi 2 ta smenada o'qishar ekan va shu maktab quvvatidan ortiqcha bolalar taqsil olar ekanlar. Mening bu loyiham juda maqul bo'ladi deb o'ylayman. Uning bosh reja ko'rinishida unga boruvchi alohida yo'l va avtomobillar turish joylari undan tash- qari ushbu xudud uchun zarur bo'lgan barcha binolar loyihalangan. Binoning

atrofi ko'kalamzor qilinib, manzarali daraxtlat, chiroyli gullar ekilishi loyixada ko'zda tutilgan.

Olingan 4,5 yillik taxsilimiz samarasi shuni ko'rsatadiki, biz chizgan, yaratgan loyiha qurilish me'yorlari asosida yaratilgan bo'lib, qurilishga tadbiq qilinishida o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2016 yil 21 oktyabrdagi «2017-2021 yillarda qishloq joylarda yangilangan namunaviy loyihalar bo‘yicha arzon uy-joylar qurish dasturi to‘g‘risida»gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «2017 — 2020 yillarda shaharlarda arzon ko‘p kvartirali uylarni qurish va rekonstruksiya qilish Dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2016 yil 22 noyabrdagi PQ-2660-son [qarorini](#).
- 3.Ubaydullaev X.M., Inogamova M.M., “Turarjoy va jamoat binolarini loyihalashning tipologik asoslari”, Toshkent., 2009 yil.(darslik).
- 4.Qadirova S.A. “Jamoat binolarini loyihalash” Toshkent, 2015 y., (o‘quv qo‘llanma).
5. T. Qodirova «O‘zbekistonning istiqlol yillari me‘morchiligi » Toshkent 2004 y.
- 6.Tolipov K., Inogamov B.I., Setmamatov M.B. «Arxitektura kompozitsiya nazariyasi » Toshkent 2002 y.
- 7.Ubaydullaev X.M., Abduraxmanov Y.I., Setmamatov M.B. Jamoat binolari tipologiyasi 2-kism.Toshkent 2000 y.
8. T Qodirova «O‘zbekistonning istiqlol yillari me‘morchiligi » Toshkent 2004 y.
9. Tolipov K., Inogamov B.I., Setmamatov M.B. «Arxitektura kompozitsiya nazariyasi » Toshkent 2002 y
10. ShNK 2.08.01.05 Turarjoy binolari.
- 11.ShNK 2.07.01.03 Shaxarsozlik. Shaxar xududlarini kelajakda rejalashtirish va qishloq axoli punktlarini loyixalash.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TEXNIKA FAKUL'TETI
"QURILISH VA ARXITEKTURA" KAFEDRASI.

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASIGA TAQRIZ

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASINI BAJARUVCHI

MAVZU Rajabov Rustam Barodirovich
Gurlan tumani saktixon qishlogining
hududiy arxitekturaviy rejalashtirish loyihasini ishlab chiqish

GURUHI VA YO'NALISHI 213-QHATE

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASINING HAJMI.

CHIZMA VARAQLARINING SONI _____

TUSHUNTIRISH XATLARI: JAMI _____ BET.

SHU JUMLADAN: XISOBIY QISM _____ BET.

SMETA _____ BET.

bitiruv malakaviy ishi loyihasining qisqacha mazmuni va echimlari

diplom loyihasining mazmuni hozirgi zamon talabidan
kelib chiqib ishlangan bo'lib, barcha talablar
tola ishlab chiqilgan

bitiruv malakaviy ishi loyihasining salbiy tomonlari

loyiha chizmasida sharoit quli berilmagan

bitiruv malakaviy ishi loyihasining ijobiy tomonlari

diplom loyihasining mazmuni hozirgi zamon
talabidan kelib chiqib ishlangan bo'lib,
barcha talablar tola ishlab chiqilgan;
aheli uchun barcha qulayliklar yaratilgan

kostruktiv echimlar va chizmalar bo'yicha baho

bitiruv malakaviy ishi loyihasini bajaruvchining umumta'lim va texnik saviyasi hamda
ishbilarmonlik qobiliyati:

diplom loyihasini bajaruvchi Rajabov Rustam
guruhda birga od hushiyatlari va ishlar-
monlik qobiliyati bilan ajralib turadi

Bitiruv malakaviy ishi loyihasiga «Yuu» baho tavsiya qilindi
taqrizni tuzdi _____ Batmurob

(imzo) (familyasi ismi sharifi)

« _____ » _____ 2018 yil



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI TEXNIKA FAKUL'TETI
"QURILISH VA ARXITEKTURA" KAFEDRASI.
BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASIGA
BITIRUV MALAKAVIY ISHI RAXBARINING TAQRIZI

BITIRUV MALAKAVIY ISHI LOYIXASINI BAJARUVCHI

MAVZU Rajabov Ruffan Baxodirovich
Qurilish tumani sahiyon qishlog'ining hududiy
arxitekturaliy rejalashtirish loyihasi ishlab chiqish

GURUHI VA YO'NALISHI 213 - Q HAKTE

bitiruv malakaviy ishi loyixasining ijobi tomonlari

Diplom loyihani hozirgi zamon talabidan kelib
chiqib ishlangan bo'lib, sahiyon qishlog'ida
zarur bo'lgan turli markaslar va
qulayliklari mavjud.

bitiruv malakaviy ishi loyixasining salbiy tomonlari

loyiha chizmasida shanel guli berilmagan

bitiruv malakaviy ishi loyixasini loyixalovchining umumta'lim va texnik saviyasi hamda
ishbilarmonlik qobiliyati:

Diplom loyihaning bajaruvchisi Rajabov Ruffan
guruhlarda bo'lgan xos xususiyatlari va
ishbilarmonlik qobiliyati bilan ajralib
turadi.

bitiruv malakaviy ishi loyixasiga « 4 » « yaxshi » baho tavsiya qilindi
diplo raxbari taqrizi P. Yulpor

(imzo) (Familiyasi ismi sharifi)

« _____ » 2018 yil